Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

янгилаш асосида уларнинг самарадорлиги ҳамда рақобатбардошлигини янада ошириш мақсадида мамлакатимизда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг устувор йўналишларини белгилаб беради. Албатта, бунда келгуси истиқбол учун белгиланадиган илмий асосланган даражадаги мақсадлар барча ҳудудлар учун универсал ва умумий ҳисобланади. Ҳудудларда ушбу ва бошқа умумий мақсадларни янада аниқлаштириш, семантик таркибий қисмларни ҳамда статистик қийматларни танлаш орқали амалга оширилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли фармони
6. Царев В.В. (2004) «Оценка экономической эффективности инвестиций». –СПб; Питер, – 19 с.
7. Шеремет В.В., Павлюченко В.М., Шапиро В.Д. (1998) “Управление инвестициями” Москва, “Высшая Школа”, 82-83 бетлар.
8. Шодмонов Ш.Ш., Ғафуров У.В. (2010) “Иқтисодиёт назарияси” Дарслик. – Т.: 347-б.

ELEKTRON TIJORAT: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Xolmirzayev Furqatbek Muxtarjonovich
“University of Economy and Pedagogy” NOTM assistenti
Sharobiddinov Abdumalik
“University of Economy and Pedagogy” NOTM talabasi

Annotatsiya: *Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi olib borgan tahliliy o‘rganishlarga qaraganda, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biriga aylandi. Elktron tijoratning milliy iqtisodiyotda tobora ulushi kengayib bormoqda.*
Kalit so’zlar*: raqamli bank, elektron tijorat,avtomatlashtirish, mobil tizimlar, smart bank.*

ELECTRONIC COMMERCE: PROBLEMS AND PROSPECTS

ABSTRACT

According to the analytical studies conducted by the Digital Economy Research Center, e-commerce has become one of the main elements of the digital economy in Uzbekistan in recent years. The share of electronic commerce in the national economy is increasing.
Keywords: *digital bank, electronic commerce, automation, mobile systems, smart bank.*

Elektron tijorat, internet orqali maxsulotlarni sotib olish va sotishni anglatadi. Bu turi bilan, siz birinchi turdagi mahsulotlarni internet orqali qabul qilish, buyurtma bermish va to'lovni amalga oshirish imkoniyatiga egasiz. Elektron tijorat, eng sodda


Published: 17.05.2024
Cite this article: Xolmirzayev Furqatbek Muxtarjonovich, Sharobiddinov Abdumalik (2024). Elektron tijorat: muammolar va istiqbollar. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/92
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

usullardan biri bo'lib, global platformalarda xaridorlar bilan masofaviy tarzda savdo amalga oshirishga imkon beradi. Bu sohasi yanada osonlashib, tez rivojlana boshlaydi.Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O'zbekistonda elektron tijorat darajasini yanada oshirishga qaratilgan qadam-qadam harakatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston hokimiyati, elektron tijorat sohasini rivojlantirish va internet orqali savdo muhitini kengaytirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu holatda, bir nechta onlayn savdo platformalari, dasturlar va onlayn to'lov tizimlari faoliyat yuritishmoqda. Bundan tashqari, o'zbekistonlik tadbirkorlar ham onlayn savdo orqali xizmatlarni taklif etishadi.

Elektron tijorat tizimlarini rivojlantirish, onlayn savdo imkoniyatlarini kengaytirish va xaridorlarga qulaylik yaratish yo'li bilan, O'zbekiston hokimiyati tashqi investorlarni, shuningdek, mahalliy tadbirkorlarni ham o'z tizimlarini rivojlantirib, yanada yuqori darajada texnologik yaxshilik va xizmat sifatini ta'minlashgan.

O‘zbekistonda elektron tijorat va chakana savdo hajmi barqaror o‘sib bormoqda. Xususan, 2022-yilda elektron tijorat savdolari hajmi 2021-yilga nisbatan 1,8 barobar oshib, 10 886,8 milliard so‘mdan ortiqni tashkil etdi. Bu umumiy chakana savdo hajmining 4 foizdan ortig‘iga teng.

O‘zbekistonda elektron tijoratning kelajagini belgilovchi muhim omillardan biri sohani qonunchilik bilan tartibga solishdir. 2022-yilda yangilangan “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Qonun iste’molchilarni ham, tadbirkorlarni ham huquqiy himoya qiladi, elektron operatsiyalarni amalga oshirish va huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilash tartibini belgilaydi. Ishonchli va barqaror elektron tijorat ekotizimini yaratishda qonunchilik va to‘lov tizimlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular jarayonning barcha ishtirokchilari — ham xaridorlar, ham sotuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi.



O’zbekistonda 2016-2022-yillarda elektron tijorat va chakana savdo hajmining dinamikasi

2019-yilda “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi va bu fintech sektorining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Elektron to‘lovlar iste’molchilar va biznes uchun qulaylik va xavfsizlikni ta’minlovchi onlayn tijoratning ajralmas qismiga aylandi. O‘zbekistonda onlayn tranzaksiyalarni osonlashtiradigan bir qancha to‘lov tizimlari mavjud.

Elektron tijoratning o’ziga xos qulayliklari va ustunliklari mavjud**:**

•Xalqarooperatsiyalarda axborot olish tezligi oshadi;

•Ishlab chiqarish va sotish davriqisqaradi;

•Arzon kommunikatsion vositalardan foydalanish evaziga axborot almashish xarajatlari kamayadi.

O’zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish jarayonlari amalda Bugungi kunga kelib, O’zbekistonda davlat organlari elektron tijoratni rivojlantirishda, dunyo tajribasida keng qo’llanilgan quyidagi prinsiplarga amal qilishmoqda.

• Elektron tijoratni rivojlantirishda korpoorativ sektor faol rol o’ynashi lozim;

• Elektron tijoratga nisbatan, davlat organlari tomonidan asoslanmagan turli cheklovlar qo’yilishiga yo’l qo’yilmaslik lozim;

• Davlat hokimiyati elektron tijorat jarayoniga, ushbu soha subyektlarini qo’llab-quvvatlash va huquq bazasini takomillashtirish maqsadida aralishishi mumkin;

• Elektron tijoratni boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda davlat hokimiyati Inernetning o’ziga xosliklarini inobatga olishi lozim;

• Elektron tijorat jarayoni ma’muriy-hududiy bo’linish va davlat chegaralariga bog’liq bo’lmagan ravishda, global masshtabda sodir bo’lishi lozim.

Iqtisodiy rivojlanish oqibatida O’zbekiston xalqaro iqtisodiyot tizimida tobora o’z mavqe’ini mustahkamlab bormoqda. Bu esa o’z navbatida elektron tijorat infratuzilmasini takomillashtirish, uning jahon bozorida kuchli raqobatchi sifatida paydo bo’lishini ta’minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Yuqoridagi holatlar inobatga olingan holda elektron tijoratning asosini , ya’ni huquqiy bazasini takomillashtirish bo’yicha bir qancha sezilarli ishlar amalga oshirildi. 2004 yil 29 aprelda N613-II “Elektron tijorat” to’g’risida O’zbekiston Respublikasi qonuni, 2007 yil 30 noyabrda Vazirlar Mahkamasining №21 “Elektron tijoratni rivojlantirish” tog’risidagi va 2007 yil 12 iyunda “Elektron tijorat tizimini amalda qo’llashda to’lov tizimini takomillashtirish” tog’risidagi qarorlar qabul qilindi. Bundan tashqari Respublikada elektron tijoratni rivojlantirish maqsadida “Ekarmon” loyihasi ishlab chiqildi va u samarali tarzda amaliyotga joriy qilinmoqda.

Olib borilgan va bajarilgan ishlar asosida bir qancha ijobiy natijalarga erishildi. Masalan, axborot almahinuvi tezligini oshirish va unga sarflanadigan vaqtni kamaytirish maqsadida olib borilgan ishlarning natijasi Respublikada xalqaro axborot tarmoqlari tezligini oshishida ko’rinadi.

Muammolar…

Shuni alohida ta’kidlab o’tish kerakki, o’zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish bilan bir qatorda bu sohaning takomillashishiga to’sqinlik qilayotgan bir qancha muammolar ham mavjud. Bu muammolarning tezkor va aniq yechilishi bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan quyidagi

yechimini kutayotgan masalalar jahon tajribasida keng tarqalgan bo’lib, ularning to’gri hal qilinmasligi oqibatida bu sohada jiddiy inqirozlar vujudga kelishi mumkin.

Birinchidan, zarur infrastrukturaning hali ham yetarli darajada takomillashgmagani.

Quyida bir nechta misollar keltiramiz:

• internetning global tarmog’i bilan to’gridan-to’g’ri bog’langan provayderlar soni cheklangan miqdorda va buning natijasida internet mijozlarga provayder o’rtasida biridan ikkinchisiga tashish orqali yetkazilmoqda, ma’lumki bunday holat xizmat ko’rsatishning sifatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

• viloyatlarda ko’rsatilayotgan internet xizmatining sifat ko’rsatkichlari poytaxtdagi holat bilan solishtirganda sezilarli darajada yomon. Ajratilgan ulanish (ADCL modem) uchun yetarli shart-sharoitning yaratilmaganligi natijasida mijozlar to’gridan to’g’ri qo’ng’iroq qilish orqali (Dial-up) ulanishdan foydalanishadi. Bu o’z navbatida xizmat sifatining yetarli darajada bo’lmasligiga olib keladi.

Ikkinchidan, internet foydalanuvchilarining miqdori shunday darajadaki, bu holat elektron tijorat bilan shug’ullanish uchun zarur bo’lgan yirik bozor yaratish imkonini bermaydi (O’zbekiston bo’yicha internet foydalanuvchilarining soni 2,5 mln. dan ortiq [4]). To’gri oxirgi yillarda bu sohada bir qancha ijobiy natijalarga erishilmoqda, lekin bu faqatgina ma’lum bir hududlarda (asosan poytaxt va ba’zi bir viloyat markazlar) o’smoqda. Ko’pchilik viloyatlarda bunday holat haligacha muammoligicha qolmoqda. Ma’lumki, yetarlicha hajmdagi bozorga ega bo’lmasdan turib elektron tijorat faoliyatini yuritish ixtiyoriy tadbirkor uchun zarardir.

Uchinchidan, jismoniy shaxslarning bank hisob raqamlaridan on-line to’lovni amalga oshirishni ta’minlaydigan ishonchli tizimning rivojlanmaganligi. Banklarimiz tomonidan chiqarilayotgan plastik kartochkalardan faqatgina maxsus terminallardan foydalanib to’lovni amalga oshirishimiz mumkin, xalqaro tajribada esa plastik kartochkalar yordamida, to’lovni qabul qilish uchun o’rnatilgan maxsus modullar orqali, to’g’ridan to’g’ri on-line do’konlarda to’lovni amalga oshirish mumkin.

Asosiy muammo shundaki, O’zbekistonda jismoniy shaxslar uchun on-line banking xizmati keng tarqalmadi. On-line banking bank mijozlari uchun internet tarmog’ida yoki mobil aloqa yordamida o’z hisoblarini boshqarish va to’lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bir necha banklar tomonidan taklif etilayotgan SMS-banking bir tomonlama bo’lib, faqatgina hisob va operatsiyalar tarixi haqida ma’lumot olish uchun mo’ljallangan. Bu holat elektron tijoratning rivojlanishiga eng katta to’siq bo’layotgan muammolardan biridir.

To’rtinchidan, mavjud internet-do’konlar faoliyatida yetarli professionallik darajasi yetishmaydi. Aloqa va axborotlashtirish agentligi chop etgan ma’lumotlarga ko’ra 01.01.2008 yil holatiga bo’yicha O’zbekistonda 24 internet-do’kon faoliyat yuritadi. Kompyuter va elektron-mayishiy texnika mahsulotlarini sotishga bo’yicha-8, sovg’a va gullar bo’yicha-4, raqamli tovarlar bo’yicha -6, iste’mol va ma’ishiy tovarlar bo’yicha-3, kitob, musiqa va kompakt diskda filmlar sotishga mo’ljallangan-3 do’kon mavjud. Bu veb-saytlarning 4-ishlov berilish jarayonida, 4-to’lovni xalqaro to’lov tizimidagi plastik kartochkalardan foydalanib amalga oshirish imkonini yaratadi, 12-WM Transfer to’lov tizimidan foydalanadi. Qolgan 7 do’kon naqdsiz

to’lovni amalga oshirishni imkonini, yozma shartnoma imzolanganidan so’ng, yaratadi.

Takliflar…

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilishda asosiy e’tibor beriladigan yo’nalishlar sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

• Elektron tijorat sohasida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarur. Ilmiy ishlar, maqolalar yozish, maxsuslashtirilgan internet-resurlar yaratish, doimiy forum va konferensiyalar tashkil etish, kadrlar tayorlashda elektron tijoratning nafaqat texnik, balki iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarini ham inobatga olish, eng asosiy muammolardan biri malakali kadrlar yetishmovchiligini, oldini oladi.

•Telekommunikatsion xizmatlarni ko’rsatish sohasida raqobatni rivojlantirish. Bu xizmat sifatining oshishiga, narxlar darajasining tushishiga va elektron tijorat uchun ma’lum internet-auditoriyalarining yaratilishiga olib keladi.

•O’z-o’zini boshqarish va tajriba almashish tizimlarini yaratish

•Elektron tizimi bo’yicha ta’lim tizimini rivojlantirish

•Axborot texnologiyalarining butun O’zbekiston bo’ylab keng tarqalishini ta’minlash. Nafaqat viloyat markazlarida, balki chekka qishloqlarda ham axborot texnologiyalarining joriy qilinishi elektron tijorat hajmining sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

•On-line banking tizimini butun respublika bo’ylab samarali joriy qilish. Bu ulgurji va chakana savdo bilan shug’ullanayotgan tadbirkorlar uchun o’z tovar va xizmatlari bilan internet tarmog’i orqali erkin savdo qilish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga bu bank sohasining boshqa yo’nalishlari bo’yicha ham sezilarli o’zgarishlarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.

1. Кобелев, О.А. Электронная коммерция /О.А. Кобелев ; под ред. С.В. Пирогова. – Москва : Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2018.

2. «Экономическое обозрение», 14 ноябрь 2009. «Новая вершина узбекского Интернета», 18-Б.

3. Schueffel P. Taming the Beast: A Scientific Definition of Fintech // Journal of Innovation Management. 2017.

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SALOHIYATI OMILLARI HAMDA ULARNING O‘ZIGA HOS XUSUSIYATLARI

Numonjonova Nargiza Ashuraliyevna
Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti
nomonjonovanargiza7@gmail.com.

Bugungi yangilanayotgan iqtisodiy-ijtimoiy jamiyatda, bozor iqtisodiyotining shakllanishi va taraqqiy etishi, raqobatbardosh iqtisodiyotning samaradorlik darajasi va bozor islohotlarining muvaffaqiyatliligiga ta’sir etuvchi eng muhim omillardan biri - kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi.